

AZIMOVA Robiya

*O'zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi
Islomshunoslik mutaxassisligi
I-bosqich magistranti
Email address: azimorobiya@gmail.com*

Ilmiy rahbar: PALVANOV O'ktam

*O'zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi
Islomshunoslik va islom sivilizatsiyasini
o'rganish ICESCO kafedrası dotsenti, PhD*

NASAFIYNING HAYOTI VA ILMIY FAOLIYATI

ЖИЗНЬ И НАУЧНАЯ ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ АН-НАСАФИ

THE LIFE AND SCHOLARLY ACTIVITY OF AL-NASAFI

Annotatsiya. Movarounnahr zaminida voyaga yetgan yirik alloma, imom, faqih, mufasssir va kalom ilmi namoyandasi Abul Barakat Hofizuddin Nasafiy (vaf. 710/1310) o'z davrining islom ilmlariga ulkan hissa qo'shgan zabardast ulamolardan sanaladi. U ilk ta'limni Buxoro hamda Samarqand ilmiy muhitida olgan. Davrining yetuk faqihlaridan saboq olib, keyinchalik o'zi ham ko'plab shogirdlar tarbiyalagan. Movarounnahrda hanafiylik va moturidiylik ta'limotining keng yoyilishida muhim o'rin tutgan. Allomaning fiqh, aqida va tafsir yo'nalishlarida qariyb o'n oltita e'tiborli va nufuzli asarlari mavjud.

Kalit so'zlar. Nasaf, sharh, nisba, kunya, tafsir, fiqh, Moturidiylik.

Аннотация. Крупный ученый, имам, факих, мufasssir и представитель калама Абу-ль-Баракат Хафизуддин ан-Насафи (ум. 710/1310), выросший на земле Мавераннахра, считается одним из выдающихся богословов, внесших значительный вклад в исламские науки своего времени. Он получил первоначальное образование в научной среде Бухары и Самарканда. Обучаясь у ведущих факихов своей эпохи, впоследствии он сам воспитал множество учеников. Он сыграл важную роль в широком распространении ханафитского и матуридизмского учений в Мавераннахре. Учёному принадлежит около шестнадцати авторитетных и значимых трудов в области фикха, акиды и тафсира.

Ключевые слова: Насаф, комментарий (шарх), нисба, кунья, тафсир, фикх, матуридизм.

Annotation. The prominent scholar, imam, jurist, Qur'anic commentator, and Islamic theologian Abul Barakat Hafizuddin al-Nasafi (d. 710/1310), who was

raised in Mawarannahr, is regarded as one of the great scholars who made a significant contribution to the Islamic sciences of his time. He received his early education in the scholarly environments of Bukhara and Samarkand. Having studied under the leading jurists of his era, he later trained many students himself. He played an important role in the widespread dissemination of the Hanafi and Maturidi schools in Mawarannahr. The scholar authored approximately sixteen notable and authoritative works in the fields of Islamic jurisprudence (fiqh), Islamic creed (aqidah), and Qur'anic exegesis (tafsir).

Keywords: Nasaf, commentary (sharh), nisbah, kunyah, Qur'anic exegesis (tafsir), Islamic jurisprudence (fiqh), Maturidism.

KIRISH

Islom tafakkuri tarixida Movarounnahr hududi mustaqil ilmiy maktablar shakllangan, nazariy va amaliy bilim uyg'unlashgan hudud, islom ilmfanining markazlaridan biri sifatida alohida o'rin egallaydi. Ushbu hududda hanafiylik mazhabi va moturidiylik ta'limoti izchil rivojlangan. Ana shu ilmiy muhitda tarbiyalangan Abul Barakat Hofizuddin Nasafiy hanafiy-moturidiy ilmiy an'analarning shakllanishi va rivojlanishida muhim rol o'ynagan yirik faqih, mufasssir va kalom olimlaridan biri sifatida o'chmas iz qoldirdi. U boshlang'ich ta'limini Buxoro va Samarqand ilmiy makonlarida yetuk ulamolardan olgan, so'ngra Bag'dodda faoliyat yuritib, darslar o'tish va kitoblar yozish bilan mashg'ul bo'lgan. Abul Barakat Nasafiyning fiqh, aqida va tafsirga oid asarlari asrlar mobaynida madrasalar ta'lim tizimida muhim o'quv manbasi sifatida qo'llanib kelgan. Bugungi kunda ham mazkur asarlar ilmiy tadqiqotlarda asosiy manbalardan biri sifatida e'tirof etilib, mutaxassislar tomonidan keng o'rganilmoqda. Uning har bir asari o'z sohasi doirasida mustahkam ilmiy ahamiyat kasb etadi.

ASOSIY QISM

Imom Abul Barakat Nasafiyning to'liq ismi Abdulloh ibn Ahmad ibn Mahmud Abul Barakat Hofizuddin an-Nasafiydir. U Movarounnahrning Nasaf shahrida tug'ilgan va shu sababli Nasafiy nisbasi berilgan. Bugungi kunda Nasaf shahri O'zbekiston Respublikasidagi Qashqadaryo viloyati hududiga to'g'ri keladi.

Tug'ilgan yili ko'plab manbalarda aniq ko'rsatilmaydi. Lekin birgina Muhammad Shafiq G'irbol (1311-1380/1894-1961)ning "*al-Mavsua*

al-arobiyya al-muyassaro” asarida uning tavalludi 627/1232-yil deb keltirgan [10:1833]. Uning vafoti haqida ulamolar turli fikrlarga ega bo‘lib, yil va joy borasida ixtilof qilganlar. Asosan 710/1310 va 701/1302-yillar, Iyzaj shahrida vafot etgani takrorlanadi. Muhammad Abdulhay al-Laknaviy (1264-1304/1848-1886) o‘z asarida uni hijriy 710-yilda Bag‘dodga borib, o‘sha yerda vafot etganini yozgan [9:102]. Hoji Xalifa (1017-1067/1609-1657) esa 701-yilda vafot etganini zikr qiladi [12:500; 13:364]. Hofiz ibn Hajar al-Asqaloniy (773-852/1372-1452) va Taqiyyuddin al-Maqriziy (766-845/1364-1442) o‘z asarlarida 701-yil Robi‘ al-avval oyida, juma kuni tunda vafot etib, Iyzaj (Xuziston va Isfahonning o‘rtasidagi shahar, hozirda Eron hududida joylashgan) shahriga dafn etilganini yozishgan [6:247; 14:155]. Toshko‘prizoda (901-968/1495-1561) 751-yilda vafot etgan deb keltiradi [15:113]. Abul Fida Qutlubg‘o (vaf. 879/1474) *“Toj at-tarojim”* asarida, Ismoil Poshsho al-Bag‘dodiy (vaf. 1339/1920) *“Hadiyyatul ‘arifyn”* asarida, Xayruddin az-Zirikli (1310-1396/1893-1976) *“al-A‘lam qomus tarojim”* asarida 710/1310-yilda vafot etganini yozishgan [4:174; 8:464; 17:68]. Bundan ko‘rinib turibiki, aksar tarixchi ulamolar Imom Abul Barakot Nasafiyning vafot etgan yilini 710/1310-yil deb, dafn etilgan hududni esa Iyzaj shahri deb keltirishgan.

Imom Abul Barakot Nasafiyning otasi va bobosi ham Nasaf diyorining katta ulamolaridan bo‘lib, otasi Ahmad va bobosi Mahmud Shayx al-islom Muhammad ibn Hasan Shayboniy (131-189/748-804)dan ta‘lim olishgani manbalarda keladi [1:9].

Imom Nasafiy tug‘ilib yashagan davr ilmiy, madaniy va iqtisodiy jihatdan murakkab bir pallaga to‘g‘ri kelgan. Chunki o‘sha davrda Mo‘g‘ullar Movarounnahrni Chig‘atoy ulusi tarkibida to‘liq nazorat qilgan va ilm-fan, madaniyat hamda iqtisod faoliyati sustlashgan edi. Shu sababli manbalarda Abul Barakot Nasafiy yashagan davrning ijtimoiy va madaniy hayoti haqida kam ma‘lumot qoldirilgan. Sharq mamlakatlari tanazzulga yuz tutgan, ko‘plab ziyolilar, ilm va din arboblari o‘ldirilgan yoki boshqa hududlarga ko‘chib ketishga majbur bo‘lgan. Masalan, *“Ravzatul mustanshir”* nomli tafsir kitobini yozgan va “qozilarning peshvosi” nomiga musharraf bo‘lgan Abus-Sano’ Muhammad ibn Ahmad ibn Mahmud az-Zanjoni 656/1258-yilda Bag‘dodda qatl qilingan. Buyuk so‘fiy olim Najmiddin Kubro esa 618/1221-yilda

Xorazm jangida halok bo‘lgan. Ibn al-Asir keltirgan ma‘lumotlarga ko‘ra, mo‘g‘ullar biror hududni zabt etgan chog‘larida aholini ommaviy ravishda qirib tashlar, turar-joylar hamda boshqa inshootlarga esa o‘t qo‘yar edilar. Bunday sharoitda faqat qochishga muvaffaq bo‘lganlar, taslim bo‘lganlar yoki halok bo‘lganlar orasida o‘zini o‘likka solib yashirib qolgan kishilargina omon qolish imkoniga ega bo‘lgan [5:58].

Abul Barakot Nasafiyning yetuk alloma sifatida shakllanishida ustozlarining o‘rni muhim bo‘lgan. Ayniqsa o‘z zamonasining zabardast olimi Abul Vajd Shamsul Ayma Muhammad ibn Abdusattor al-Kardariy (559-642/1163-1244) uning ilmiy rivojlanishida ta’siri katta bo‘lgan. Imom Nasafiy aynan shu ustozidan fiqh ilmidagi muhim manba hisoblanmish *“al-Hidoya”* asari asosida ta‘lim olgan. Al-Kardariy ham o‘z navbatida *“al-Hidoya”* asari muallifi Burhonuddin al-Marg‘inoniy (511-593/1135-1197) hamda *“Fatovo Qozixon”* asarining sohibi Faxruddin Qozixon (vaf. 592/1196) kabi ulug‘ ustozlardan tahsil olgan. Manbalarda kelishicha, Movarounnahr diyorida dastlabki fiqh ilmini keng yoygan zot Abu Zayd ad-Dabusi (369-430/978-1039) bo‘lsa, undan keyin bu ilmni qayta jonlantirgan shaxs Shamsul Ayma al-Kardariy deb aytiladi. Mana shunday ustozshogirdan anasining davomiy bo‘lgani natijasida, Movarounnahr hududidan yuzlab faqihlar yetishib chiqdi.

Shuni ham ta’kidlash kerakki, Abul Barakot an-Nasafiyning ilmiy yetuk olim bo‘lib shakllanishida yana boshqa yirik allomalardan ham ta‘lim olgani muhim o‘rin tutgan. Manbalarda qayd etilishicha, u Hamiduddin ad-Dorir Ali ibn Muhammad ibn Ali ar-Romishiy al-Buxoriy (vaf. 666/1267) hamda Badruddin Xoharzoda Muhammad ibn Mahmud ibn Abdulkarim al-Kardariy (vaf. 651/1253) kabi mashhur ustozlardan ham saboq olgan. E’tiborga molik jihati shundaki, Abul Barakot Nasafiyning Abu Hanifagacha borib taqaladigan ustozlar zanjiri bo‘lib, mazkur shajara quyidagicha bayon etiladi: Shamsul Ayma al-Kardariy (vaf. 642/1244), Hasan ibn Ali al-Marg‘inoniy (vaf. 592/1196), Abdulaziz ibn Umar ibn Moza (483-536/1090-1141), Mahmud ibn Abdulaziz al-O‘zgandiy Abul Qosim Shamsul Ayma, Abu Bakr Muhammad Shamsul Ayma as-Saraxsiy (1009-1090), Abdulaziz ibn Ahmad ibn Nasr ibn Solih Shamsul Ayma al-Halvoniy al-Buxoriy (vaf. 449/1057), Husayn ibn Xodr an-Nasafiy Abu Ali (vaf. 424/1032), Bakr ibn Muhammad ibn Ali ibn al-Fazl

(427-512/1035-1118), Abu Muhammad Abdulloh ibn Muhammad ibn Ya'qub as-Subazmuniy (258-340/872-952), Abu Hafs Muhammad ibn Ahmad ibn Hafs al-Buxoriy as-Sag'ir (vaf. 264-877), uning otasi Abu Hafs Ahmad ibn Hafs al-Buxoriy al-Kabir (150-217/767-832), Imom Muhammad ibn al-Hasan ash-Shayboniy al-Kufiy (131-189/748-804), Imom Abu Hanifa an-No'mon ibn Sobit ibn Marzuban al-Kufiy (80-150/699-767) [9:102].

Manbalarda keltirishicha, Imom Abul Barakot Nasafiy ilm-ma'rifat talabida Movarounnahrning bir qancha shaharlarida ko'chib yurgan. Bu borada *"Kashf al-asror"* asarining muqaddimasida o'zi aytadi: *"Buxoroda va boshqa islom diyorlarida ko'plab ilm ahlidan bo'lgan zotlarni ko'rdim. Ular usul al-fiqhda Faxrul Islom va Shamsul Aymma as-Saraxsiy (rohimahumalloh)lardan ilm olishga intilishar ekan. Shuning uchun, ularning iltimoslari bilan bu ikki imomning asarlarini muxtasar qilib yozdim"*. So'ng, bu shahardan Bag'dodga yo'l oladi. Shu bilan uning 2 safari, biri yurti uzra, ikkinchisi yurtidan tashqarida bo'ldi [3:22].

Imom Abul Barakot Nasafiy ko'plab shu kabi katta ulamolar jamoasidan dars olib, fiqh, usul al-fiqh, aqida va arab tilida mohir bo'ldi. Natijada, turli ilmlar doirasida barchaga manfaatli asarlar yozib qoldirdi. Uzoq yillar muftiylik vazifasini bajardi, shu bilan birga, dars ham berganki, zamonasining ko'plab ulamolari uning darslarida ishtirok etib manfaat olgan, ulardan biri Shamsul Oyat al-Kardariydir [18:71]. Undan tashqari, alloma, ulug' faqih, *"al-Hidoya"*ga sharh yozgan Hasan ibn Ali ibn Hajjoj ibn Ali Husamuddin as-Sig'naqi (1240-1310), *"al-Kashshof"* tafsiriga *"al-Kashf"* nomli sharh, *"Sharhu Usul al-Pazdaviy"* asarlarini yozgan Alovuddin Abdulaziz ibn Ahmad al-Buxoriy (vaf. 730/1329), *"Jami' al-asror fi sharh al-Manor"* asari va *"Me'roj ad-diroya fi sharh al-Hidoya"* asarlar muallifi Qovamuddin Muhammad ibn Muhammad (vaf. 794/1348), ibn As-Sa'atiy nomi bilan mashhur bo'lgan Muzafaruddin Ahmad ibn Ali (vaf. 694/1294)lar ham ta'lim olishgan [2:11; 3:24].

Imom Nasafiy o'z davrida hanafiy mazhabining nafaqat nazariy-ilmiy, balki amaliy jihatdan ham yetakchisi bo'ldi. Bu yetakchilik uning go'zal axloqi, kamtarligi, so'zlarining fasohatli ekanligi, nutqining ravonligi, faqirlarga mehr-muhabbatli bo'lib, ularga ehson qilishga shay turgani, uzluksiz ish bilan mashg'ul bo'lib, asarlar yozishga shog'ib ketgani bilan bo'ldi [2:11]. Manbalarda qayd etilishicha, u davlat arboblari ziyoratiga bormasdi,

balki, hukmdorlar o'zlari Imom Nasafiyning uyiga kelishar, shundagina ular bilan uchrashar edi.

Uning ilmiy faoliyati va shaxsiyati haqida ulamolarning ta'riflaridan ba'zilarini zikr qilish kifoya. Masalan, Abdulhay Laknaviy (1264-1304/1848-1886) o'zining biografik asarida Imom Nasafiy haqida quyidagicha ta'rif beradi: *"U zamonasining tengi yo'q ulamasi edi. Fiqh va usulning ko'zga ko'ringan ulamolaridan bo'lib, hadisni mukammal bilar; ma'nolarini to'liq anglab yetgan edi. Uning yozgan barcha asarlari faqihlar uchun mo'tabar, ulamolar nazariga tushgan asarlardir"* [9:102]. Muhyiddin al-Quroshiy al-Hanafiy (696-775/1297-1373) Imom Nasafiy haqida yuksak baho berib, *"U so'ngi zohidlardan biridir"* deya e'tirof etadi [11:294]. Shuningdek, mashhur muhaddis va muarrix Hofiz ibn Hajar al-Asqaloni (773-852/1372-1452) esa manfaatli asarlarini keltirib, uni *"dunyo allomasi"* sifatida zikr qiladi [6:247].

Ilmning tarqalishi, sof tarzda saqlanishiga hissa qo'shgan Abul Barakot Nasafiy *"Hofizuddin"*, ya'ni *"dinni himoya qiluvchi"* degan sharaflı nomga sazovor bo'lgan. Manbalarda kelishicha, bu nomga allomalardan ikki kishigina sazovor bo'lgan, bulardan ikkinchisi Hofizuddin Abul Fazl Muhammad ibn Muhammad ibn Nasr al-Kabir al-Buxoriy (615-693/1218-1294)dir. Bu ikki olim bir-biriga yaqin yillarda yashagan bo'lib, ikkisi ham alloma al-Kardariy (559-642/1163-1244) dan ta'lim olganlar [16:200]. Shuningdek, unga *"Abul Barakot"*, ya'ni *"barakalar otasi"* kunyasi berilgan [3:19]. Imom Abul Barakot Nasafiy ustozlar silsilasini davom ettirgan holda, Ahmad ibn Muhammad al-Attobiy (vaf. 586/1189)dan fiqhga oid *"az-Ziyodot"* asarini rivoyat qilgan va Hasan ibn Ali as-Sig'naqiya o'rgatgan [2:11]. Nasafiy taxminan 1280-yillarda Kirmon shahridagi *"Qutbiya sultoniya"* madrasasida dars bergan. So'ngra Bag'dodga kelib, u yerda ham ta'lim bergan. Nasafiy o'ta taqvodor va diyonatli shaxs bo'lgan. Arab va fors tillarini mukammal darajada bilgan [19].

Manbalarda Imom Nasafiyning fiqh, usul al-fiqh, aqida ilmlarida 16 ta asari sanab o'tiladi [3:25-26]. Imom furu' al-fiqhga oid *"al-Vofiy"* asarini yozgan. Keyinchalik, uni o'zi sharhlab, ushbu asarini *"al-Kofiy"* deb nomlaydi. Uning fiqh ilmida mo'tabar manbalardan biriga aylangan asari *"Kanz ad-daqiq"* bo'lib, hozirgacha ko'plab ilm ahli orasida katta ahamiyatga ega bo'lib kelmoqda. Uni ulamolar hattoki *"al-Hidoya"* asaridan keyingi

o'ringa qo'yadilar. Shuningdek, hanafiy fiqhiga oid "*al-Mustasfa al-fiqh an-nafi'ga sharh*", usul al-fiqhga oid "*al-Manor*" matni va unga 2 sharh yozgan bo'lib [18:71], biri kengroq, uning nomi "*Kashf al-asror*", ikkinchisi qisqaroq hajmda bo'lib, nomi "*al-Atfu min al-kashf*" hisoblanadi [14:155]. Alloma Hamiduddin Ali ibn Muhammad ad-Dorir ar-Romishiy (vaf. 666/1267)ning furu' al-fiqhga oid "*an-Nofo*" asariga "*al-Manofe*" nomli sharh bitgan [7:39]. Hanafiylik mazhabi furu' al-fiqhiga oid "*al-Mustasfa*" nomli asari ham mavjud. Bibliografik manba hisoblanmish "*al-Manhal as-sofi*" asarida Imom Abul Barakot Nasafiyning aqidaga oid "*al-Umda*" asari bo'lib, unga imomning o'zi "*al-E'timod fi al-e'tiqod*" nomli sharh yozgani keltiriladi. Ushbu asari moturidiylik maktabidagi muhim manbalardan biriga aylangan. "*Al-E'timod*"ni yozish hijriy VII asrda (XIII asr oxiri) nihoyasiga yetgan. Bu davrda esa, moturidiya maktabida mo'tabar kitoblar ko'p bo'lmagan. Shuning uchun ham, bu kitob moturidiylik maktabida tarixni bog'lovchi muhim xalqa sifatida ko'riladi. Ta'kidlash joizki, muallifning o'z kitobiga o'zi sharh yozishi uning boshqa asarlar orasida yuqori o'rinda ekanini bildiradi. Chunki muallifning o'zi yozgan asarida qanday g'oya va maqsadlarni ilgari surganini o'zi yaxshiroq biladi va kitobdagi nozik iboralarni kengroq ochib beradi [18]. Shu bilan birga, ushbu asarga boshqa ko'plab ulamolar ham sharh yozishgan. Masalan, Shayx Akmaluddin Muhammad ibn Mahmud al-Bobartiy (vaf. 714-786/1314-1384) "*Sharh Umdati al-aqoid*", Shayx Ahmad ibn O'g'uz Al-Aqshahriy (vaf. 800/1398) "*al-Intiqod fi sharhi Umdati al-e'tiqod*", Shamsuddin Muhammad ibn Ibrohim an-Niksoriy (vaf. 901/1490) "*Sharh Umdati al-aqoid*", Qozi al-quzzot Jamoluddin Mahmud ibn Ahmad al-Qovnaviy (vaf. 777/1375) "*az-Zubda fi sharh al-Umda*" deb nomlab, keng qamrovli va mufasssal sharhlar yozishgan. Imom Abul Barakot Nasafiyning merosi borasida beriladigan manbalar orasida, Imom Abu Hafs Bahriddin Nasafiy (461-537/1068-1142)ning "*Manzumat al-xilaf*" asariga "*al-Musaffo*" nomli sharh yozgani, hamda Muhammad ibn Muhammad ibn Umar Axsikatiy (vaf. 644/1246)ning usul al-fiqhga oid "*al-Muntaxob al-axsikatiy*" asariga 2 ta sharh yozgani ham keladi [14:155].

Abul Barakot Nasafiyning qoldirgan ilmiy merosi orasida eng mashhuri bu uning "*Madorik at-tanzil va haqoiq at-ta'vil*" nomli tafsiri bo'lib, u ilmiy adabiyotlarda ko'proq "*Tafsir an-Nasafiy*"

nomi bilan tilga olinadi. U 4 jildidan iborat bo'lib, asarda Abu Mansur Moturidiy (vaf. 333/944)ning qarashlari va uning "*Ta'vilat ahlis sunna*" nomli tafsiridan keng foydalanilgan. Mazkur tafsir hanafiy fiqhi qarashlari va moturidiylik aqidasi tamoyillari asosida yozilgan manba bo'lish bilan birga, oyatlardagi jumlarlar tafsirini sharhlashda filologik tahlillar ham amalga oshirilgani, Qur'onning balog'ati, fasohati mohirona ochib berilgani, aqidaviy oyatlarga alohida to'xtalib o'tgani bilan muhim o'rin tutadi. Xususan, arab tili ilmining asoschilaridan biri sifatida e'tirof etilgan, Imom Sibuvayh nomi bilan tanilgan Amr ibn Usmon (148-180/765-796), hamda Kufa nahv maktabining yetuk namoyandalaridan biri sanalgan, Imom Farro nomi bilan mashhur bo'lgan Yahyo ibn Ziyod (761-822)ning qarashlaridan keng foydalangan. Bu esa tafsirning lingvistik asoslari mustahkam ekanini ko'rsatadi. Ushbu shar'iy ilmlar doirasida yozilgan asarlaridan tashqari, Imom Nasafiyning turli mavzularda yozilgan "*Fadoil al-a'mal*" va "*al-La'ali al-faxiro fi ulum al-axiro*" nomli asarlari ham mavjud [3:26]. Manbalarda keltirilishicha, uning bu asarlari shunchaki sodda tilda yozilgan asar emas, balki ular ham Qur'on oyatlari tafsiri hisoblanadi [7:43]. Uning bu ikki kitobi hali o'rganilmagan manbalar sirasiga kiradi. Uning bu kabi mo'tabar asarlar yozganiga qo'shimcha qilib, Abul Adl Zaynuddin Qutlubg'o (vaf. 879/1474) "*Toj at-tarajim*" asarida Burhonuddin Marg'inoniy (511-593/1135-1197)ning "*al-Hidoya*" asariga Imom Nasafiy ham sharh yozgan bo'lishi mumkinligini keltiradi [4:174]. Boshqa bir olim – Abdulhay Laknaviy (1264-1304/1848-1886) ning ma'lumot berishicha, Imom Nasafiy "*al-Hidoya*" asariga sharh bitishni niyat qilgan, biroq o'sha zamonning yirik faqihlaridan biri bo'lmish Ubaydulloh ibn Mas'ud ibn Tojush Shari'a (vaf. 747/1346) eshitib qolib, uni bu fikridan qaytargan. Shundan so'ng, Imom Nasafiy "*al-Hidoya*"ning darajasiga yeta oladigan asar yozishga kirishib, "*al-Vofiy*" asari va uning sharhi "*al-Kofiy*"ni tasnif etgan. U bu asarlari bilan xuddi "*al-Hidoya*"ga sharh yozganlik maqomiga erishadi [9:102]. Uning bu qarashlariga qo'shimcha tarzda Taqiyyuddin at-Tamimiy (766-845/1364-1442) ham o'z asarida Imom Nasafiyning "*al-Hidoya*" nomli tasnifoti ma'lum emasligini keltiradi [14:155].

Hozirda O'zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasining "Manbalar xazinasi" bo'limida Imom Abul Barakot Nasafiyning 1895-yilda nashr etilgan "*Kanz ad-daqiq*" asarining toshbosma

nusxasi mavjud bo'lib, № 1199 raqam ostida saqlanmoqda. Shuningdek, uning ushbu asariga mashhur hanafiy olimi Zaynuddin ibn Ibrohim ibn Muhammad (1519-1563)ning "*al-Bahr ar-roiq sharh Kanz ad-daqiq*" nomli sharhi 1893-yilda nashr qilingan toshbosma nusxasining 5 jildi № 46, 51, 52, 55, 56 raqam ostida, mashhur hanafiy faqih Manlo Miskin nomi bilan tanilgan Mu'inuddin Muhammad ibn Abdulloh al-Haraviy (vaf. 954/1547)ning "*Sharh Kanz ad-daqiq*" nomli sharhining toshbosmasi № 1066 raqam ostiga qo'yilgan. Undan tashqari, Imom Nasafiyning "*al-Manor*" asariga Ahmad ibn Abu Sa'id Hanafiy Siddiqiy (vaf. 1130/1717)ning "*Nur al-anvor ma'a qomar al-aqmar*" nomli sharhining 1901-yilda nashr etilgan toshbosma shakli ham mavjud bo'lib, № 36 raqam ostida saqlanmoqda.

XULOSA

Xulosa sifatida ta'kidlash mumkinki, alloma Abul Barakot Nasafiyning taxminan 80 yillar atrofidagi kechirgan umri davomida islom dini, xususan, fiqhda hanafiylik, aqidada moturidiylik mazhabi tarqalishi va sof saqlanib qolishi uchun katta mehnat qilgani a'yon bo'ldi. Bu jarayonda Imom Abu Hanifagacha yetib boradigan silsilasi mavjudligi, o'z davrining zabardast ulamolardan dars olgani, keyinchalik o'zi ham yetuk ulamolarni yetishtirgani muhim ahamiyatga ega. Fiqhda eng mo'tabar bo'lgan manbalardan biri "*al-Hidoya*" asarini mashhur ulamolardan tahsil olib, so'ngra ushbu asardek ahamiyatli manba yozishga kirishgani uning furu' al-fiqh ilmini rivojlantirishdagi ahamiyatiga yaqqol dalil bo'ladi. Shuningdek, uning aqida ilmidagi "*al-E'timod fi al-e'tiqod*" asari aqida ilmida rivojlanishni istagan har bir olim uchun dastlabki tayanch manba sifatida qaralishi ham e'tiborga molik. Undan tashqari, tafsir ilmiga oid yozgan "*Madorik at-tanzil*" asari ham oyatlarga har taraflama yondashib sharh berilgani bilan muhim manba sifatida xizmat qilib kelmoqda. Zikr qilingandek, 16 ta asari ma'lum bo'lsada, barchasi ulamolarning nazariga tushgan, doim murojaat qilinadigan manbalar ekani bu olimning ilmiy merosi ahamiyatini ko'rsatib beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Abdulloh ibn Ahmad ibn Mahmud Nasafi. *Kanz ad-daqiq*. – Karachi: Maktabatul bushro, 2010. – J. I. – 541 b.
2. Abul Barakot an-Nasafi. *Madorik at-tanzil va haqiq at-ta'vil*. – Livan: Dar tahqiq al-kitab, 2018. – J. I. – 696 b.
3. Abul Barakot an-Nasafi. *Al-Musoffa fi sharhi manzumati al-xilafi*. – Livan: Dar al-kutub al-ilmiyya, 2024. – J. I. – 2032 b.
4. Abul Fido Zaynuddin Qosim ibn Qutlubg'o. *Toj at-tarajim fi tobaqot al-hanafiyya*. – Damashq: Dar al-qalam, 1992. – 568 b.
5. Davronbek Maqsudov. *Abul Barakot an-Nasafi va uning madorik at-tanzil va haqiq at-ta'vil asari*. – T.: Movarounnahr, 2014. – 197 b.
6. Hafiz ibn Hajar al-Asqaloniy. *Ad-Duror al-kamina fi a'yanil miatis samina*. – Hindiston: Dairot al-ma'arif, h.1349. – J. II. – 458 b.
7. Hofizuddin an-Nasafi. *Sharh al-muntaxob fi usul al-mazhab. Dirosatu va tahqiq: Salim Ug'ut*. – 1070 b.
8. Ismoil Poshsho al-Bag'dodiy. *Hadiyyatul 'arifin*. – Istanbul: Daru ihyai at-turos al-arobiyy, 1951. – J. I. – 512 b.
9. Muhammad Abdulhay al-Laknaviy. *Al-Favaid al-bahiyya fi tarajim al-hanafiyya*. – Misr: Saodat, 1324. – 262 b.
10. Muhammad Shafiq G'irbol. *Al-Mavsua al-arobiyya al-muyassar*. – Qohira: Dar ash-sha'b, 1965. – 2074 b.
11. Muhiyiddin Abu Muhammad Abdulqodir al-Quroshiy al-Hanafi. *Al-Javahir al-mudiyya fi tobaqoti al-hanafiyya*. – Misr: Hijr, 1994. – J. II. – 776 b.
12. Mustafu ibn Abdulloh al-Qustontiniy. *Kashf az-zunun an asami al-kutub va al-funun*. – Livan, Bayrut: Muassat al-furqon, 2021. – J. I. – 696 b.
13. Mustafu ibn Abdulloh al-Qustontiniy. *Salm al-vusul ila at-tobaqoti al-fuhul*. – Istanbul: IRCICA, 2010. – J. V. – 489 b.
14. Taqiyyuddin ibn Abdulqodir at-Tamimiy ad-Dariy. *At-Tobaqot as-sunniyya fi tarajim al-hanafiyya*. – Ar-Riyad: Dar ar-rifa'iyy, 1983. – J. IV. – 452 b.
15. Toshko'prizoda. *Tobaqot ul-fuqoha*. – Mosul: Az-Zahro al-hadisa, 1961. – 139 b.
16. Uvatov U. *O'zbekiston – buyuk allomalar yurti*. – T.: Ma'naviyat, 2010. – 397 b.
17. Xayriddin az-Zirikliy. *Al-A'lam qomus tarajim*. – Bayrut: Dar al-ilm lil malaayin, 2002. – J. IV. – 334 b.
18. Yusuf ibn Tag'ri Bardiy. *Al-Manhal as-sofiy val mustavfa ba'dal vafiy*. – Qohira: Markazu tahqiq at-turos, 1993. – 623 b.
19. Elmurodov R. *Abul Barakot Nasafiyning "Al-e'timod fil e'tiqod" asari tavsifi*. <https://www.bukhari.uz/?p=35465&lang=uz>
20. <https://allomalar.uz/uz/scientist-info/24>